



# PREMA



# PEDAGOGIK MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**2-son (2023-yil, mart)**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2023**

## PEDAGOGIK MAHORAT

### Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2023, № 2

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

**Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** 200117, O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy

Elektron manzil: [nashriyot\\_buxdu@buxdu.uz](mailto:nashriyot_buxdu@buxdu.uz)

#### TAHRIR HAY’ATI:

**Bosh muharrir:** Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

**Mas’ul kotib:** Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

*Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), dotsent*

*Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)*

*Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta‘limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)*

*Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta‘lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)*

*Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)*

*Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent*

*Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)*

*Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor*

*Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor*

*O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor*

*Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Chariyev Irgash To‘rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)*

*To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori, dotsent*

*Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Jumaev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, dotsent.*

*Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

<b>FILOLOGIYA VA TILLARNI O‘QITISH</b>			
24.	<i>OMONOVA Dildora Nekmurod qizi</i>	Integrativ yondashuv asosida ona tili va o‘qish savodxonligi darsligida “Chumolining jasorati” mavzusidagi hikoyani o‘qitish mashg‘ulotining umumiy qurilishi	127
25.	<i>UMUROVA Ma‘rifat Yoshiyevna</i>	O‘quvchilarni ma‘naviy-axloqiy shakllantirishda xizmat qiladigan xalq qo‘shiqlarining o‘ziga xos xususiyati	132
26.	<i>ИСПАЙЛОВА Илона Халитовна</i>	Эффективность обучения медицинскому английскому языку при формировании коммуникативных навыков посредством аутентичных фильмов	136
<b>ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISH</b>			
27.	<i>RASHIDOV Anvarjon Sharipovich, NURIDDINOV Javlon Zafarovich, ISAQOVA Umida Hamraquq qizi</i>	Chizikli differensial tenglamalar sistemasini yechishda interfaol usullarning qo‘llanilishi haqida	143
28.	<i>JO‘RAYEV Akmal Razzoqovich, SHADIYEVA Nigora Sharipovna</i>	Dasturiy ta‘lim vositalari asosida talabalarning geografik obyektlarni 3D loyihalash va modellashtirish kompetentligini rivojlantirish modeli	149
29.	<i>МАРДОНОВ Санжар</i>	Совершенствование лабораторных курсов по биохимии для студентов медицинских вузов с использованием электронного учебника	156
30.	<i>САФАРОВА Нафиса Сулаймоновна</i>	Электрокимё асослари мавзусини интегратив ёндашув асосида ўқитиш методикаси (Тиббий кимё курси мисолида)	160
<b>JISMONIY MADANIYAT VA SPORT</b>			
31.	<i>XODJAYEV Ravshan Ixanovich</i>	O‘zbekistonda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar	166
<b>SAN‘AT</b>			
32.	<i>BO‘RIBOYEVA Dilraboxon Norboy qizi</i>	Muhandislik grafikasi fanlarini o‘qitishning innovatsion usuli	170
33.	<i>RO‘ZIYEV Erkin Iskandarovich, TOJIYEV Javlon Karimboyevich</i>	Texnologiya o‘qituvchilari tayyorlashda xalq hunarmandchiligi va amaliy san‘ati ta‘limi mazmunini takomillashtirish	177
34.	<i>ОСТОНОВА Гулшод Раззоқовна</i>	Ўқувчилар томонидан санъат асарларини идрок этиш ва тасаввур қилишнинг ўзига хос хусусиятларини ўрганиш муаммолари	187
35.	<i>SODIQOVA Aziza Hayitovna</i>	Tikuvchilik buyumlarini loyihalash jarayonida “easy design” (sodda loyiha) interfaol metodi	191
<b>TA‘LIM MENEJMENTI</b>			
36.	<i>САИДОВА Зилола</i>	Генезис и современное состояние теории и практики системы управления в системе образования	197
<b>MA‘NAVIYAT VA TARBIIYA</b>			
37.	<i>BURXANOV Taxir Maxammatjonovich</i>	Bo‘lajak ofitserlarda ma‘naviy fazilatlarini takomillashtirishning o‘ziga xos jihatlari	201
38.	<i>ORTIQOV Oybek Rustamovich</i>	Talabalarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirishda Husayn Voiz Koshifiyning ta‘limotidan foydalanish	206
<b>PEDAGOGIK TA‘LIMOTLAR TARIXI</b>			
39.	<i>ИЗБУЛЛАЕВА Гулчехра Валериевна</i>	Дидактические произведения как основа средств воспитания	211
40.	<i>QODIROVA Aziza Bekmurodovna</i>	Sayyid Burxoniddin Muhaqqiq Termiziy ijodida ijtimoiy-axloqiy munosabatlar	216

## FILOLOGIYA VA TILLARNI O‘QITISH

### INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA ONA TILI VA O‘QISH SAVODXONLIGI DARSFIGIDA “CHUMOLINING JASORATI” MAVZUSIDAGI HIKOYANI O‘QITISH MASHG‘ULOTINING UMUMIY QURILISHI

*Omonova Dildora Nekmurod qizi,  
Buxoro davlat universiteti  
Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi kafedrası  
tayanch doktranti*

*Ushbu maqolada o‘quvchilarning integrativ yondashuv asosida shaxs nutqini o‘stirishda maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim bosqichlari, nutq, o‘stirish, matn ustida ishlash, matn ustida ishlash orqali nutq o‘stirish, boshlang‘ich sinf o‘qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o‘stirish kabi tushunchalar keng yoritib berilgan. O‘qish savodxonligi doirasida o‘quvchida to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakalarini shakllantirish, buning uchun boshlang‘ich sinfda nimalarga e‘tibor qaratish haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, maqolada 2-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darsligidagi “Chumolining jasorati” hikoyasining metodik tahlili keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar:** ona tili va o‘qish savodxonligi darslari, milliy o‘quv dasturi, didaktik tahlil, ta‘lim-tarbiya, vatanparvarlik*

### ОБЩЕЕ ПОСТРОЕНИЕ УРОКА ЧТЕНИЯ НА ТЕМУ РАССКАЗА «МУЖЕСТВО МУРАВЬЯ» В УЧЕБНИКЕ ПО РОДНОМУ ЯЗЫКУ И ГРАМОТНОСТИ ЧТЕНИЯ НА ОСНОВЕ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА

*В данной статье речь идёт о развитии личностной речи учащихся на основе интегративного подхода на этапах дошкольного и начального образования, речи, развитии, работе над текстом, развитии речи через работу над текстом, на уроках чтения в начальной школе. В статье представлено, как развивать речь при работе над текстом. В рамках читательской грамотности рассматривается формирование у учащегося навыков правильного, быстрого, осознанного, выразительного чтения, для этого уделяется внимание предметам в начальных классах. Также в статье рассматривается родной язык 2 класса, и представлен методический анализ рассказа «Мужество муравья» в учебнике чтения.*

***Ключевые слова:** уроки родного языка и чтения, национальная учебная программа, дидактический анализ, воспитание, патриотизм.*

### GENERAL CONSTRUCTION OF A READING LESSON ON THE THEME OF THE STORY "THE COURAGE OF THE ANT" IN THE TEXTBOOK ON THE NATIVE LANGUAGE AND READING LITERACY ON THE BASIS OF THE INTEGRATIVE APPROACH

*This article focuses on the development of personal speech of students based on an integrative approach at the stages of preschool and primary education, speech, development, work on the text, speech development through work on the text, in primary school reading classes concepts such as developing speech by working on the text are covered in detail. In the framework of reading literacy, the formation of correct, fast, conscious, expressive reading skills in the student is considered, for this, focusing on the subject in the primary grade. Also, the article discusses the 2nd grade mother tongue and o A methodical analysis of the story "Courage of the Ant" in the winter literacy textbook is presented.*

***Key words:** mother tongue and reading literacy classes, national curriculum, didactic analysis, education, patriotism*

**Kirish.** Inson tafakkur vositasida tabiat va jamiyatdagi narsa-hodisalarning o‘xshash va farqli tomonlarini ajratadi, ularni taqqoslaydi, tahlil va sintez qiladi. Bular til vositasida reallashadi, kishilar uchun tushunarli bo‘ladi. Fikrlash jarayonida abstraksiyalash va umumlashtirishning roli katta. Abstraksiyalash va umumlashtirish bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan nutq insonning haqiqatni eng yuksak darajada in‘ikos etishini ta‘minlaydi. Abstraksiyalash va umumlashtirish bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan ikkinchi signallar tizimi moddiy borliqni in‘ikos etishning eng yuksak darajasi bo‘lishi bilan birga, insonning nerv faoliyatini, uning butun xatti-harakatini boshqarishning ham eng yuksak regulyatoridir.

Ta’limda ona tili ikki xil funksiya bajaradi: barcha o’quv predmetlariga oid bilimlarni bolalarga o’rgatish vositasi; o’quv predmeti. O’quv predmeti sifatida tilning fonetika, leksika, va grammatikasidan nazariy bilimlar, nazariy bilimlar asosida esa nutq ko’nikmalari shakllantiriladi. Ona tilidan o’zlashtiriladigan o’quv materiallari quyidagi umumiy xususiyatlarga ega.

1. Tildan o’rganiladigan har bir hodisaning ma’nosi va shu ma’noga xos jarangdorlik–fizik tomoni mavjud.

2. Tildan o’rganiladigan har bir hodisa ma’lum tushunchani anglatadi. Bu tushuncha o’z navbatida hajm jihatidan kengroq ikkinchi bir tushuncha matnida qaraladi.

3. O’rganiladigan hodisa til tizimiga kirganligi, bu tizimning ma’lum tomonini ifodalagani uchun u til va nutqqa doir juda ko’p omillar bilan daxldor, ular bilan aloqador bo’ladi.

Bugungi kunda ilm-fan taraqqiyoti tezlik bilan rivojlanib bormoqda. Bu esa o’z navbatida o’qituvchidan hamda o’quvchidan yuqori salohiyat talab qiladi. Shunga munosib ravishda ularga ta’lim-tarbiya beradigan ustoz-muallimlar ham yosh avlodga tizimli bilim berish va mana shu berilayotgan bilim olish yo’llarini o’rgatish lozim. Shuningdek, o’quvchining ijodiy tafakkuri, uning tanqidiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan bugungi ta’lim tizimida boshlang’ich sinfni tugatayotgan har bir o’quvchi shaxsiga zamonaviy talablarni qo’yadi.

**Muhokamalar.** Jahon ta’lim muassasalarida ona tili va o’qish savodxonligi fanlarini o’qitish metodikasini integrativ yondashuvlar asosida takomillashtirishning kognitiv mexanizmlari ta’lim tizimiga tatbiq etilgan. Yevropa Ittifoqi Hay’atining 2000-yilda qabul qilgan “Umr bo’yi ta’lim olish masalalari bo’yicha Memorandum”da barcha ta’lim oluvchilar uchun teng imkoniyatlarning yaratilishi, umr bo’yi ta’lim olish (lifelong learning) istiqbollari asosida Yevropa Ittifoqining umumiy o’rta ta’lim beruvchi maktablar miqyosida xalqaro almashinuvni (o’quvchilar almashinuvini) tashkil etuvchi “Europa” maxsus dasturlarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish bo’yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahon ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida maktab ta’limi mazmunini har o’n yillikda takomillashtirish, o’quvchilar tomonidan boshlang’ich ta’lim ma’lumotining samarali o’zlashtirilganini tasdiqlovchi umumiy bitiruv imtixonini topshirish asosida o’rta maktabga o’tishni ta’minlashning me’yoriy asoslarini rivojlantirish, kichik maktab yoshidagi o’quvchilarning ta’limga bo’lgan qiziqish va ishtiyoqlarini rivojlantirishning nazariy masalalarini kengaytirish bo’yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu bilan birga, o’quvchilarning kitobxonlik tajribasi hamda axborotlardan maqsadli foydalanish malakalarini rivojlantirish, boshlang’ich sinf o’quvchilarining matn ustida ishlash orqali nutqini o’stirish, nutq o’stirishda badiiy-ifodali, hissiy-estetik imkoniyatlarni kengaytirish bo’yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor berilmoqda.

Shaxs nutqini o’stirishda maktabgacha va boshlang’ich ta’lim bosqichlari boshlang’ich davr bo’lishi inobatga olinsa, ularning takomillashtirilishi, “boshlang’ich ta’lim mazmunini to’liq integrallashtirish, mazkur mazmunda ta’lim-tarbiya elementlari uyg’unligini ta’minlash”ning naqadar dolzarb ahamiyatga egaligini ko’rsatadi.

“Nutq”, “nutq o’stirish”, “matn ustida ishlash”, “matn ustida ishlash orqali nutq o’stirish”, “boshlang’ich sinf o’qish darslarida matn ustida ishlash orqali nutq o’stirish” kabilar tadqiqot muammosining muhim tayanch tushunchalaridir. Ularning mohiyatini yetarlicha anglash tadqiqotni olib borishda muammoning to’g’ri, oqilona yechimini topishga imkon beradi.

Nazariy tahlil “nutq” tushunchasiga mavjud tilshunoslik, pedagogik, psixologik hamda metodik adabiyotlarda turlicha izohlar berilganligini ko’rsatdi. Xususan, “Pedagogik ensiklopedik lug’at”da nutq “insonlarning til vositasida amalga oshiriladigan muloqot (kommunikatsiya) shakli bo’lib, u fikrni ifodalash vositasi bo’lishi bilan birga fikrlashning asosiy mexanizmi”, “O’zbekiston Milliy ensiklopediyasi”da nutq deganda uning og’zaki (ovozli) va yozma ravishda namoyon bo’lishidagi jarayonlar, ya’ni so’zlash jarayoni va uning natijasi (xotirada saqlangan yoki yozuvda qayd etilgan nutqiy fikrlar, asarlar)”, deya e’tirof etiladi. Psixologlar tomonidan nutq “odam tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o’zlashtirish va avlodlarga berish yoki o’zaro aloqa o’rnatish yoki o’z harakatlarini rejalashtirish maqsadida tildan foydalanish jarayoni”, deb ta’riflangan. Metodik olimlar tomonidan nutq “kishi faoliyatining turi, til vositalari (so’z, so’z birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solish” sifatida ham talqin etilgan. Bir so’z bilan aytganda, nutq ijtimoiy sub’ektlarning til vositasida amalga oshiriladigan faoliyat turidir.

Nutqda quyidagi xususiyatlar namoyon bo’ladi:

1) fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratiladi, tugallangan mavzuni ifodalaydi, logik va grammatik qoidalar asosida tuziladi, mustaqil, tugallangan, o’zaro bog’langan ma’noli qismlarga bo’linadi (u bog’lanishli nutq deb ataladi);

2) og’zaki va yozma shaklda ifodalanadi;

3) og’zaki va yozma nutqni rivojlantirish yagona jarayonda kechadi;

4) shunga qaramay, og‘zaki va yozma nutq orasida jiddiy tafovutlar mavjud (ular haqida ishning keyingi bobida batafsil so‘z yuritiladi);

5) nutq muloqot chog‘ida ishtirok etuvchilarning soniga ko‘ra dialogik va monologik kabi turlarga bo‘linadi;

6) dialog og‘zaki nutqning keng tarqalgan turlaridan, nutqiy muloqotning tabiiy shakllaridan biri bo‘lib, ikki yoki bir necha shaxs o‘rtasida kechadi;

7) og‘zaki nutq, tabiatiga ko‘ra, ko‘proq suhbat shaklida yuzaga keladi;

8) nutqning juda muhim shakllaridan biri sanaladigan monolog dialogga nisbatan mazmunni ifodalash uchun til vositalarini tanlash, nutqning qurilishiga ko‘ra bir qadar an‘naviylikka ega.

Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida matn ustida ishlash jarayonida asosiy e‘tibor uning mazmuniga qaratilsa-da, tuzilishini ham nazardan qochirmaslik kerak. Jumladan, voqea kechayotgan sharoit, peyzaj, asar qahramonlarining kechmishlari, ruhiyati tasvirida o‘tgan, hozirgi yoki kelasi zamon shakllaridan foydalanilishini anglagan o‘quvchi matn mazmunini og‘zaki hikoyalashda adashmaydi. O‘quvchilar diqqatini matndagi bir mazmundagi hodisalar tasvirida (peyzaj, adabiy qahramonning ruhiy holati, portreti) fe‘l-kesimlar, odatda, bitta zamon shaklida bo‘lishiga qaratish ularning nafaqat o‘qish va yozuv, balki matn mazmunini idrok etish va fikrlash bilan bog‘liq ko‘nikmalarini shakllantirishga ham yordam beradi.

Matnlarda jumllararo aloqa alohida e‘tiborga molik. Odatda, matnning aynan bir shaxs yoki bitta voqea-hodisa haqida gap boradigan qismi o‘zaro aloqada bo‘lib, xatboshidan boshlanadi. Darslarda o‘quvchilarga matn qismlarini o‘qish yoki ko‘chirib yozishni topshirish ularning diqqatini ma‘lum bir maqsad atrofida birlashtirishga xizmat qiladi.

O‘quvchilarda nutqiy qobiliyatlarni rivojlantirishda ona tili fanining o‘rni va ahamiyati beqiyos hisoblanadi. Umumiy o‘rta ta‘lim ona tili fani o‘quvchi shaxsida fikrlashga, o‘zgalar fikrini anglashga, o‘z fikrini og‘zaki hamda yozma shaklda nutq sharoitiga mos ravishda to‘g‘ri va ravon bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirishni ko‘zda tutadi.

Bugungi kunda boshlang‘ich sinf darsliklari o‘quvchining ijodkorligiga, uning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, o‘quvchida mantiqiy fikrlashni rivojlantirishga doir ko‘pgina mashqlarni uchratish mumkin. Bundan tashqari, boshlang‘ich sinflarda kitoblar bilan birgalikda mashq daftarlarini ham berilishi ularning mavzuni mustahkamlashi uchun yanada samarali usullardan biri desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Zamonaviy darsliklarda berilgan matnlar o‘quvchining tinglab tushunish, o‘qib tushunish, fonetik jihatdan unli va undosh harflar talaffuzi, ularni og‘zaki va yozma nutqda to‘g‘ri qo‘llay olish malakasiga doir ko‘pgina matnlarni uchratish mumkin.

O‘qish savodxonligi doirasida o‘quvchida to‘g‘ri, tez, ongli, ifodali o‘qish malakalarini shakllantirish, ularni oddiy kitob o‘quvchidan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor, kitobxon darajasiga ko‘tarish; o‘qish orqali tevarak-atrof, borliq haqidagi bilimlarini kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitish, tafakkurida elementar adabiy tushunchalarni shakllantirish; har qanday uslubdagi matnni o‘qish va uni anglash, tanqidiy va kreativ fikrlash ko‘nikmasini oshirish nazarda tutiladi.

O‘quvchining nutqini o‘stirish uchun albatta badiiy asarlarning o‘rni beqiyos hisoblanadi. Boshlang‘ich sinfda hikoya, kichik matn o‘qishga qiziqqan bola, albatta, yuqori sinfda kattaroq asar o‘qishni boshlaydi va bu ko‘nikmaga aylanib boradi. Boshlang‘ich sinf ona tili va o‘qish savodxonligi darsliklarida ham bir qancha hikoyalarni uchratishimiz mumkin. Biz o‘zimizga savol beraylik, matn o‘qish, hikoya o‘qish bolaga nima beradi? Biz uni o‘quvchiga qanday usullar bilan yetkazsak, samarali natijaga erishamiz.

2-sinf ona tili va o‘qish savodxonligi 1-qism darsligidagi 2-bo‘lim “Vatanparvarlik nima?” deb nomlangan bo‘lib, bu bo‘lim orqali o‘quvchida bevosita Vatan nima?, Vatanparvarlik nima? kabi savollarga javob berish, o‘quvchilarning vatanparvarlik bilan bog‘liq tasavvurlarini kengaytirish tarbiyaviy maqsad qilib olingan. Shu bo‘limning 6-betida “Chumolining jasorati” deb nomlangan hikoya berilgan bo‘lib, bu hikoya orqali o‘quvchida hayvonlarning jasorati ba‘zan insonning jasoratidan ham yuqori o‘rinda turushi tasvirlangan. Dastlab matn o‘qituvchi tomonidan o‘qib beriladi, keyin o‘quvchilar matnni ichdan o‘qishadi. Mazmun o‘qituvchining o‘qib berishidan so‘ng tushunarli bo‘ladi, ichdan o‘qish ham tezroq amalga oshadi. Matn o‘qib bo‘lingach, quyidagi savollar ustida ishlanadi:

1. Sizning fikringizcha “O‘tloq ahli” nima uchun birlashdi?

Asosiy e‘tibor chumolining o‘tloq ahliga qattiq ta‘sir etgan gaplariga qaratiladi: “To‘g‘ri aytasiz, bir zarra suv yong‘inni o‘chirmaydi. Lekin men urinib ko‘rmoqchiman. Chunki bu o‘tloq – mening vatanim. Uni asrash uchun menda zarradek imkoniyat bo‘lsa, shu imkoniyatdan foydalanaman”.

2. Ayting-chi, ushbu hikoyadagi chumoliga o‘xshash insonlar sizning yon-atrofingizda ham uchraydimi? Ular o‘z yurtlarini qanday asrashadi? Ularning o‘rnida siz bo‘lganingizda qanday yo‘l tutgan bo‘lar edingiz?

O‘quvchilar ushbu savolga javob berish jarayonida o‘z harakati bilan o‘z yurtini asray oladigan odamlar haqida gapirishlari, Vatan yo‘lida jonini qurbon qilgan insonlar haqida fikr bildirishi mumkin. O‘tmishdagi ajdodlarimizning o‘z Vatanini asrashi uchun qanday yo‘l tutganligi, jonini fido qilish darajasida qahramonligi xususida haqida fikr yuritadilar.

3. Sizningcha fidoyilik nima? Hikoyadagi qaysi qahramonlar fidoyilik qilishdi?

O‘quvchilar fidoyilik nimalarda ko‘rinishi, hikoyadagi jonzoqlarning qanday qilib o‘tloqni asrashga harakat qilganliklariga e‘tibor berishadi.

4. Siz ham yon atrofdagi o‘rtoqlaringiz mushkul holatda tushib qolganlarida fidoyilik qilganmisiz? Ular haqida so‘zlab bering?

O‘quvchilar o‘rtoqlari mushkul ahvolga tushib qolganlarida, albatta, ularga yordam qo‘lini cho‘zishlarini, inson doimo o‘rtoqlariga yordam qo‘lini cho‘zishlari kerakligi haqida ta‘kidlab o‘tadilar.

5. O‘qituvchi o‘quvchilarga hikoyaga mos keladigan maqollarni so‘raydi? “Bir yoqadan bosh chiqarib”.

So‘ngra o‘quvchilar matnga mos keladigan maqollardan namunalar keltiradi.

Mashaqqatsiz rohat bo‘lmas.

Kuch birlikda.

Suvni bersang elga, yosharasan ming yilga.

Sizningcha, muallif ushbu matnni yaratishdan maqsad nima?

O‘quvchilar turli xil javob beradilar. O‘qituvchi berilgan javoblardan mosini tanlab, o‘zi ham munosib javobni topib javob beradi. Shundan so‘ng o‘qituvchi o‘quvchilarga matnni yana qanday sarlavha bilan o‘zgartirish mumkin degan savolni beradi?

O‘quvchilar: “Kuch-birlikda”, “Mashaqqatsiz rohat bo‘lmas” yana bir qancha sarlavhalarni tanlaydilar. O‘quvchilar tomonidan chiroyli tanlangan sarlavha, o‘qituvchi tomonidan xattaxtada yozib boriladi.

Matn tarkibida berilgan jonzoqlarning nomlarini alohida ajratib yozing? Birinchi bo‘lib chumoliga kim yordam beradi? Biz hayvonlarni asrashimiz uchun ularga qanday yordam bera olamiz?

*Asalari-chelakchasida, kaklik-tumshug‘ida, qo‘y-qo‘zilar og‘zida suv keltirib, chumoliga yordam qo‘lini cho‘zishadi.* Matnning barcha jihatlarini o‘rganilgandan so‘ng xulosa qismiga kelinadi. O‘quvchilarga xulosa qismi berilgan gapni aniqlash va uni ko‘chirib yozish topshirig‘i beriladi. O‘quvchilar quyidagi gaplarni yozadi: *xullas, barcha jonzoqlar bir yoqadan bosh chiqarib olovga suv sepishganida xuddi osmondan yomg‘ir yog‘gandek bo‘libdi. Shu tariqa yong‘in o‘chirilibdi.*

Matnning xulosasini aniqlash eng muhim ko‘nikmalardan biridir. Mazkur topshiriq ushbu ko‘nikmani rivojlantirishga xizmat qiladi. 3-va 4-darslar davomida “Chumolining jasorati” matni ustida tizimli ish olib boriladi. Bunda matnni ifodali o‘qish, o‘qish savodxonligi, so‘z ma‘nolari bilan ishlash, ibora va maqollar ustida ishlash hamda yozma savodxonlik ko‘nikmalari o‘qituvchining diqqat-e‘tiborida bo‘lishi lozim.

Shundan so‘ng o‘qituvchi matnni lingvistik jihatdan tahlil qilishga o‘tadi. Matnda ayrim so‘zlar ajratib ko‘rsatilgan bo‘lib, (**jazirama, qovjurab, tumtaraqay, zarrasi**) o‘quvchilar mos keluvchi izohni topib o‘qishlari kerak. Har bir bola ushbu topshiriq ustida mustaqil izlanishi lozim. Bu topshiriq matnda uchragan, o‘quvchi uchun ma‘nosi tushunarsiz bo‘lgan so‘zlarni o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Shuningdek matnda ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarda qaysi so‘zda qo‘sh undosh mavjud? Bu topshiriq matnda uchragan, o‘quvchi uchun ma‘nosi tushunarsiz bo‘lgan so‘zlarni o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

O‘qituvchi o‘quvchilarga matnni didaktik jihatdan tahlil qilib beradi.

Biz tadqiqot davomida matnni lingvostatistik tahlil qilishga ham harakat qildik. Bunda matnda berilgan harf, bosh harflar, qo‘sh undoshlar, ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga e‘tibor berildi. Buni quyidagi jadvalda ko‘rish mumkin.

Unli harflar	262 ta
Undosh harflar	406
Bosh harf bilan yozilgan so‘zlar	23 ta
Qo‘sh undoshlar	5 ta
Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlar	4 ta

«Ona tili va o‘qish savodxonligi» darsligida berilgan matnlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda vosita hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda o‘qish darslarining asosiy maqsadi o‘quvchilarni matn mazmunini to‘g‘ri tushunish, ongli va ifodali o‘qiy olish, matnda berilgan axborotni idrok qilish, matnda ifodalangan voqelikka nisbatan munosabat bildirishga tayyorlashdir. Shunga ko‘ra, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi metodik tayyorgarlikni darsning maqsadi, o‘rganilayotgan materialning



mazmuni, o‘quvchilarning mavjud bilim, ko‘nikma, malakalari darajasiga ko‘ra amalga oshiradi. O‘quvchilarni asar matnini o‘qishga tayyorlashda, birinchi navbatda, ularni matn mavzusi, tili, g‘oyaviy mazmuni va badiiy-estetik qiymati bilan tanishtirish, matn mazmunidan tegishli xulosa chiqarishga e‘tibor qaratiladi. O‘qish faoliyati ham nutqning alohida ko‘rinishi hisoblanadi.

O‘quvchining o‘z fikrini qanchalik mazmunli, aniq va to‘g‘ri ifodalay olishi uning o‘quv-bilish faolligi darajasini, ko‘nikma va malakalarini aniqlashga imkon beradi. O‘qish darslarida matnni idrok qilish va mazmun-mohiyatini o‘zlashtirish yuzasidan qo‘yilgan savol va topshiriqlar o‘quvchilarni o‘ylashga majbur qilishi, javob berishda muallif qo‘llagan iboralardan, badiiy tasvir vositalaridan foydalanishga qaratilishi, nutqda ko‘proq o‘zi uchun yangi so‘z va iboralarni ishlatishga undashi lozim.

**Xulosa.** Ona tili va o‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchining kreativligini shakllantirish juda muhim hisoblanadi. O‘quvchining matnning ma’lum qismini o‘qib, keyinchalik sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan voqealar hamda ularning natijalarini taxmin qila bilish ko‘nikmasi, muhim matnni mantiqan davom ettira olish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim hisoblanadi.

#### Adabiyotlar:

1. Ona tili va o‘qish savodxonligi 2-sinfi uchun darslik –Toshkent, 2021-y, 7-8-bet.
2. Ona tili va o‘qish savodxonligi 3-sinfi uchun darslik –Toshkent, 2021-y, 12-13-bet.
3. Umumiy o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi (ona tili). –Toshkent, 2021. -143- bet.
4. Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. -Toshkent 2017-y.
5. (2022).Lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishda media ta’lim vositalaridan foydalanish. Pedagog’s jurnali, 1(1), 182-183.
6. Omonova, D. Methodological fundamentals of linguistic competence in language teaching based on integrative approach.